



Assessment of Sociolinguistic Competence Based on CEFR Requirements

Abbos ERMIRZAEV¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

sociolinguistics,
competence,
CEFR,
system.

ABSTRACT

Improving sociolinguistic competence in foreign language teaching is one of the current scientific and methodological issues. This article discusses the assessment of sociolinguistic competence of future English language teachers based on the requirements of the CEFR system.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp69-74>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sotsiolingvistik kompetensiyaning CEFR tizimidagi talablari asosida baholanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sotsiolingvistik,
kompetensiya,
CEFR,
tizim.

Xorijiy tilni o'rgatishda sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish muammosining CEFR tizimidagi talablari asosida baholanishi haqida so'z yuritiladi.

Оценка социолингвистической компетенции на основе требований CEFR

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

социолингвистика,
компетенция,
CEFR,
система.

Совершенствование социолингвистической компетенции при обучении иностранному языку является одной из актуальных научно-методических проблем. В данной статье рассматривается вопрос оценки социолингвистической компетенции будущих преподавателей английского языка на основе требований системы CEFR.

¹ Associate Professor, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: ermirzayev89@mail.ru

KIRISH

Zamonaviy til o'qitish metodikasi til o'rganish jarayonini faqat grammatik va leksik bilimlarni egallash bilangina cheklamaydi. Chunki til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilni o'rganishda uni mazmunan, kontekstual va sotsiokulturologik jihatdan to'g'ri tushunish va qo'llay olish ko'nikmasi zarur. Bunday ko'nikma esa eng avvalo kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan sotsiolingvistik kompetensiya bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur kompetensiya o'rganuvchining turli nutqiy vaziyatlarda ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda tilni to'g'ri va samarali qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. U salomlashishdan tortib, ijtimoiy rollarga mos nutq uslublarini tanlay olishgacha bo'lgan ko'plab amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimi bugungi kunda til o'rgatish, o'rganish va baholash bo'yicha eng muhim xalqaro standartlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim nafaqat tilni bilish darajalarini (A1–C2) belgilaydi, balki til kompetensiyalarining barcha tarkibiy qismlarini, jumladan, sotsiolingvistik kompetensiyaning ham chuqur yoritadi. Ushbu maqolada aynan sotsiolingvistik kompetensiyaning CEFR tizimidagi o'rni, uning mazmuni, ahamiyati va baholash mezonlari haqida tahliliy fikr yuritiladi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sotsiolingvistik kompetensiya bu o'rganuvchining tilni real ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini anglash va shu asosda mos tarzda muloqot qila olish qobiliyatidir. U faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirish emas, balki ijtimoiy vaziyatda mos nutq uslubini tanlay olish, madaniyatlararo farqlarni hisobga olib, muloqotda moslashuvchanlik ko'rsatish imkonini beradi.

XX asrning birinchi yarmida taniqli olimlar I.A. Boduen de Kurtene, Ye.D. Polivanov, L.P. Yakubinskiy, V.M. Jirmunskiy, B.A. Larin, A.M. Seliщev, G.O. Venokur (Rossiya), F. Bryuno, A. Meye, P. Lafarg, M. Koen (Fransiya), Sh. Ball, A. Sashee (Shveysariya), J. Vandrieslar (Belgiya) tomonidan sotsiolingvistik kompetensiya masalalari o'rganilgan va tadqiq qilingan.

Ayniqsa, chet til o'rgatishda sotsiolingvistik kompetensiya (N.V. Nabatova, M.V. Leushkina, Y.A. Kostina, Y.S. Nechaeva, I.A. Isenko, L.F. Zueva, I.A. Isenko), ijtimoiy-madaniy kompetensiya (S.E. Chexova, S.V. Paxotina, Y.A. Kostina, L.A. Borxodoeva), metodik kompetensiya (Yu.Yu. Kovaleva), lingvistik kompetensiya (N.I. Arshinova), madaniyatlararo kompetensiya (L.P. Pavlova), madaniy-o'lkashunoslik kompetensiyasi (N.A. Suxova), umummadaniy kompetensiya (T.V. Ejova), matnlarni autentik o'qish vositasida chet tillarni o'rganish (N.V. Barishnikov), (T.V. Ejova), texnik OTMlarida gapirish misolida kompetentlikni rivojlantirish (N.A. Belenyuk), pedagogik yo'nalishdagi talabalarning chet tilidagi og'zaki nutq orqali kompetentlikni takomillashtirish (I.A. Isenko) turlari masalalari o'rganilgan, ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

Hozirgi paytda sotsiolingvistikada til va millatning o'zaro aloqasi, til va madaniyatning o'zaro aloqasi, bilingvizm (ikki tillilik) va ko'ptillilik (poliglosiya) sharoitida til o'rgatish masalalari e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi [2].

Tadqiqotlarda sotsiolingvistik kompetensiya-muloqotning mazmuni, xarakteriga ko'ra til shaklini tanlash va o'zgartirish qobiliyatidir, deb ta'rif beriladi [3; 9]. Albatta muloqot mazmuni shaxsning kasbi, ijtimoiy holati, dunyoqarashi, bilim saviyasi, ma'lumotlilik darajasiga ham bog'liqdir.

Sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim etish olish qobiliyatini ko'zda tutadi. Ya'ni mos kommunikativ vaziyatda diskurs tanlay olish, yuzaga kelgan muammoning mohiyatini tushuntirish olish va mijozga zaruriyat tug'ilganda rozilik borasidagi xizmatni taqdim qiluvchi shaxsqa tushuntirish bilish, til shakllarini tanlay bilish va ularni nutqiy mavzu bo'yicha kommunikativ vaziyatlar doirasida sotsiolingvistik matnga muvofiq tarzda qo'llay va o'zgartirish olish kabilardir. Shuningdek, sotsiolingvistik kompetensiya til egalarida hayratlanish yoki achchiqlanishni uyg'otmaydigan, ular uchun tabiiy, odatiy sanalgan muomalada muloqot qila olish kabilar tahlil qilishi ham ko'rsatib o'tilgan. [4; 211]

Mazkur kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- Rasmiy va norasmiy uslubdagi nutqni ajrata olish – ya'ni rasmiy uchrashuv bilan norasmiy suhbat orasidagi til farqlarini anglash va to'g'ri qo'llash;
- Ijtimoiy vaziyatga mos til vositalarini tanlay olish – yosh, ijtimoiy maqom, yaqinlik darajasi kabi omillarga mos ravishda so'zlashish;
- Ijtimoiy-madaniy konnotatsiyalarni tushunish – jumladan, xalq og'zaki ijodi, iboralar, hazillar, kinoya va atamalarni to'g'ri talqin qilish;
- Ijtimoiy nutq aktlaridan foydalanish – salomlashish, minnatdorchilik, uzr so'rash, taklif qilish, maslahat berish, rad etish va h.k.

Bu elementlar orqali til o'rganuvchi kommunikativ vaziyatlarda madaniyatga xos norma va qadriyatlarga hurmat bilan yondashishni o'rganadi.

CEFR (Common European Framework of Reference for Language) Yevropa standarti chet tillari o'qituvchilari va bo'lajak mutaxassislar kompetentligini shakllantirish hamda baholashda muhim rol o'ynaydi. Chet tillarni o'qitishda kadrlar salohiyati muhim ahamiyatga ega. Chunki o'z fanini chuqur biladigan, izlanuvchan, tajribali o'qituvchilargina yaxshi ta'lim beradi va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqara oladi [5].

CEFR Yevropa standarti nafaqat til o'rganuvchini, balki ta'lim menejerining sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantiradi. Jumladan, uning afzallik tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- o'quv dasturlarni tuzish;
 - materiallarni tanlash;
 - o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish;
 - o'quv darsliklari yaratish;
 - baholashni jahon standartlari asosida tashkil etish.
- a) o'qituvchi tomonidan baholash (assistent turi, mazmuni, kriteriyasi);
- b) o'z-o'zini baholash;
- talabalarni motivatsiyasini oshirish (bunda "qila olaman" degan iboraning qo'llanilishi yordam beradi);
 - darsni samarali loyihalashtirish.

CEFR Yevropa standarti til o'rganuvchilarni 6 ta darajaga bo'lgan holda tasnif etadi va til o'rganuvchi har bir darajada tilning 4 ko'nikmasi (o'qish, tinglash, gapirish va yozish) bo'yicha kompetensiyasi mezonlarini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola CEFR me'zonlariga tayangan holda yozildi. Tadqiqot doirasida so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, darsliklar hamda metodik qo'llanmalar o'rganildi. Tahlil obyekti sifatida xorijiy va mahalliy olimlarning sotsiolingvistika, til o'rgatish metodikasi va madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid ishlanmalari tanlab olindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi bo'yicha Yevropa – O'zbekiston ta'lim standartlari belgilangan. Shuningdek, Bolonya deklaratsiyasi OTM zimmasiga bo'lajak o'qituvchilarni: sotsiolingvistik hayotga tayyorlash; shaxs sifatida shakllantirish; chuqur va har tomonlama keng bilimga ega qilishdek maqsadni yuklaydi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib Bolonya deklaratsiyasining O'zbekistonda ingliz tili ta'limi sifatini oshirishdagi ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin:

- deklaratsiya talablariga asosan jahon mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lgan ingliz tili o'qituvchi kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish;

- Yevropa ta'lim tizimidagi ikki pog'onali o'qitish bilan O'zbekiston OTM dagi ikki pog'onali o'qitish jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda o'zaro hamkorlik, tajriba almashish orqali xalqaro me'yorlarga mos kompetentli o'qituvchi kadrlar tayyorlashga erishish;

- Yevropa OTM mazmunini qiyosiy o'rganish orqali O'zbekistonda ingliz tili o'qituvchilari tayyorlash samaradorligini takomillashtirib borish;

- transmilliy ta'lim standartlari talablari, xalqaro ilg'or tajriba asosida O'zbekistonda Davlat ta'lim standartlari mazmunini, o'quv fanlari mazmunini, kompetentli kadrlar tayyorlash sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish va b.q. Shunday qilib, mamlakatimizda kompetentli o'qituvchi kadrlar tayyorlashda xalqaro malaka talablariga tayanish, ilg'or tajribalarni o'rganish, mutaxassis olimlar tomonidan olg'a surilgan ilmiy- nazariy g'oyalardan samarali foydalanish raqobatbardosh o'qituvchilar tayyorlashning muhim vositasi hisoblanadi. Tadqiqotimiz jarayonida ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan holda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik, sotsiolingvistik kompetensiya indikatorlarini aniqladik, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqdik.

CEFR kommunikativ kompetensiyani quyidagi asosiy tarkibiy qismlar orqali ko'rib chiqadi: Lingvistik kompetensiya – fonetika, leksika, grammatika;[7]

Nutqiy (diskursiv) kompetensiya – mazmunli, mantiqiy va bog'langan nutq yaratish; Sotsiolingvistik kompetensiya – tilni ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llay olish.

CEFR tizimida sotsiolingvistik kompetensiya tilni ijtimoiy vazifalarni ado etish uchun to'g'ri qo'llay olish qobiliyati sifatida ko'riladi. Tizimda bu kompetensiyaning darajama-daraja rivojlanishi quyidagicha tavsiflanadi:

A1–A2 darajalarda: salomlashish, tanishish, xayrlashish kabi oddiy ijtimoiy ifodalarni tushunish va qo'llash;

kundalik suhbatlarda qisqa va odatiy ifodalar bilan javob qaytara olish;

noqulay vaziyatlarda yordam so'rash, minnatdorchilik bildirish.

B1–B2 darajalarda: turli ijtimoiy rollarga mos til birikmalarini mustaqil ravishda tanlab qo'llash, madaniyatga xos muloqot uslublarini (masalan, ehtiyotkorlik bilan rad etish, diplomatik takliflar) qo'llay olish, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf eta olish.

C1–C2 darajalarda:

turli madaniy kontekstlarda moslashuvchan, erkin va madaniy sezgir kommunikatsiyani amalga oshirish, ironiya, hazil, metafora, kinoya kabi murakkab nutq uslublari to'g'ri tushunish va ulardan foydalanish, nutq orqali ijtimoiy munosabatlar yaratish va boshqarish (masalan, murosa qilish, bahs-munozarada qatnashish).[8]

CEFR har bir daraja bo'yicha til o'rganuvchining sotsiolingvistik kompetensiyasini qanday holatda baholash mumkinligini yondashuv sifatida ko'rsatadi.

Sotsiolingvistik kompetensiyani baholash murakkab jarayon bo'lib, u o'rganuvchining faqat nazariy bilimini emas, balki amaliy nutqiy faoliyatini ham aks ettiradi. CEFR tizimi ushbu kompetensiyani alohida testlar orqali emas, balki umumiy kommunikativ vazifalar doirasida integratsiyalashgan holda baholashni tavsiya qiladi.

Baholash mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kontekstga mos til tanlay olish – rasmiy yoki norasmiy vaziyatni ajratib, mos tilda muloqot qilish;

- Ijtimoiy nutq aktlarini o'rinli qo'llash – nutqiy strategiyalarni to'g'ri tanlash va qo'llash (salomlashuv, kechirim so'rash, taklif qilish);

- Madaniyatlararo sezgirlik – boshqa madaniyatga xos nutq xatti-harakatlarini tushunish va moslashish.[9]

Baholash usullari esa quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Rollar o'yinlari (role-play) – o'rganuvchini turli ijtimoiy vaziyatlarga qo'yib, real kommunikatsiya muhitida baholash;

2. Dialog yaratish – turli kontekstlar asosida ijtimoiy muloqot ssenariylarini ishlab chiqish;

3. Audiovizual materiallarni tahlil qilish – ijtimoiy va madaniy konnotatsiyalarga ega suhbatlarni eshitib yoki tomosha qilib, ulardagi sotsiolingvistik elementlarni aniqlash;

4. Og'zaki intervyu yoki suhbat – madaniy tafovutlar yuzasidan mulohaza yuritish va o'z fikrini asosli bayon qilish.[10]

Bu usullar orqali o'rganuvchining nafaqat til bilimlari, balki uning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi moslashuvchanligi ham baholanadi.

XULOSA

Sotsiolingvistik kompetensiya zamonaviy til ta'limida fundamental ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiya o'rganuvchiga real hayotiy vaziyatlarda tilni nafaqat grammatik, balki ijtimoiy jihatdan mos tarzda qo'llay olish imkonini beradi. CEFR tizimi sotsiolingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida belgilaydi va uni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni taklif etadi.

Ushbu kompetensiyani baholashda madaniy farqlar, kontekstga moslik, nutqiy strategiyalarning to'g'ri tanlanishi kabi mezonlarga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ingliz tili o'qituvchilari va o'rganuvchilari CEFR mezonlari asosida sotsiolingvistik kompetensiyani chuqur o'zlashtirishga intilishi, o'qituvchilar esa uni samarali o'rgatish va baholash bo'yicha zamonaviy usullardan foydalanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit. Strasbourg. – 2010. –274 p. Electron Resource: www.coe.int/lang-CEFR

2. Манухина Ю.В. Формирование социолингвистической компетенции в процессе овладения формулами речевого этикета: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Ю.В. Манухина. – М., 2006. – 266 с.

3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, Т.: 2015.-9 б.

4. Борходоев Л.А. Прагматический текст как средство формирования социокультурной компетенции студентов языкового вуза.: Дис. ... канд.пед.наук. - Улан-Удэ, 2002. – 211 с.

5. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика: Учебник для вузов. -М.: Рос.гос.гуманит. универ, 2001. 8 с

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2006. 3 жилд. -557 б.

7. Ёқубов И. Амалий инглиз тили методикаси. -Т.: 2009. -288 б

8. Дагбаева Н.Ж. Овчинникова М.Ф. Принципы формирования социолингвистикой компетенции на начальном этапе языкового вуза// Вектор науки ТГУ №1.(8). 2012. Стр. 103-105.

9. Базина Н.В. Социолингвистическая компетенция как объект контроля. // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения. Седьмой межвузовский семинар по лингвострановедению: Сб. статей. В 2 ч. / Отв. ред. Л.Г. Веденина. – М.: МГИМО-Университете, 2010. – Ч. 1. – С. 177-182.

10. Захарова В.И. Социолингвистические особенности преподавания в институтах повышения квалификации государственных служащих по проблеме взаимодействия власти и общества. Выступление на Международной конференции «Наука и современное образование», проходившей 14-15 ноября 2014 года в Республике Сербия (Университет в Ниш).